




**TOSHKENT VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**TOSHKENT VILOYATIDA  
QURILISH ISHLARI**

**2024- YIL  
YANVAR-IYUN**

2024- yilning yanvar-iyun oylarida, Toshkent viloyatida jami 8007,6 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 113,1%ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.





# 2024- yil 1-iyul holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*

Yillar kesimida soni



1169

•Bino va inshootlar qurish

344

•Fuqarolik obyektlarini qurish

862

•Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2023- yilning shu davriga nisbatan 83,7 foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 49,2 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 79,9 foizga yetdi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 14,5 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 95,8 foizga yetdi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi esa 36,3 foiz ulushni va o'tgan yilga nisbatan 84,9 foizni tashkil etdi.



# Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga:		o'tgan yilga nisbatan, %da
	01.07.2024- y.	01.07.2023- y.	
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>2375</b>	<b>2837</b>	<b>83,7</b>
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	104	124	83,9
Olmalik	105	133	78,9
Angren	144	163	88,3
Bekobod	105	115	91,3
Ohangaron	79	101	78,2
Chirchiq	251	272	92,3
Yangiyo'l	64	74	86,5
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	44	60	73,3
Ohangaron	51	62	82,3
Bekobod	77	92	83,7
Bo'stonliq	95	107	88,8
Bo'ka	81	111	73,0
Quyichirchiq	47	68	69,1
Zangiota	193	206	93,7
Yuqori Chirchiq	146	175	83,4
Qibray	247	289	85,5
Parkent	77	100	77,0
Piskent	59	56	105,4
O'rta Chirchiq	118	149	79,2
Chinoz	69	92	75,0
Yangiyo'l	91	136	66,9
Toshkent	128	152	84,2



# 2024- yil 1-iyul holatiga ko'ra Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, %da


**Qibray (10,4)**



**Chirchiq sh. (10,6)**



**Zangiota (8,1)**





# Qurilish ishlari 2024- yil yanvar-iyun oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik va mikrofirmalar	norasmiy sektor
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>8007,6</b>	<b>1614,8</b>	<b>4333,6</b>	<b>2059,2</b>
<b>shaharlar:</b>				
Nurafshon	330,5	7,0	292,9	30,6
Olmalik	1159	973,5	130,1	55,4
Angren	238	13,5	183,9	40,6
Bekobod	296,4	70	181,8	44,6
Ohangaron	59,6	9,3	23,1	27,2
Chirchiq	786,8	50,5	698,4	37,9
Yangiyo'l	197,3	0,7	170	26,6
<b>tumanlar:</b>				
Oqqo'rg'on	166,4	0	110,2	56,2
Ohangaron	172,7	6,3	110,1	56,3
Bekobod	88,4	6,8	48	33,6
Bo'stonliq	295,4	104,9	81,4	109,1
Bo'ka	160,2	39,1	60,4	60,7
Quy Chirchiq	300,3	0	238,7	61,6
Zangiota	562,3	5,1	369,6	187,6
Yuqori Chirchiq	484,5	36,5	357,9	90,1
Qibray	689,1	253,1	143,3	292,7
Parkent	258,4	0,8	219,4	38,2
Piskent	150,4	17,8	70,3	62,3
O'rta Chirchiq	258,6	0	140,6	118
Chinoz	128,2	1,6	40,6	86
Yangiyo'l	645,7	13,4	527,6	104,7
Toshkent	579,4	4,9	135,3	439,2



2024- yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1614,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2023- yilga nisbatan 117,7 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2023- yildagi ko'rsatkich darajasidan 2,2 % punktga kupayib, 20,2 %ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 54,1 %ni to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,4 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 107,6 %ni tashkil etgan holda 4333,6 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, %da

54,1

2024- yil  
Yanvar-iyun

56,5

2023- yil  
Yanvar-iyun



**MA'LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Chirchiq shaxri (698,4 so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 16,1 %), Yangiyo'l tumani (527,6 mlrd. so'm yoki 12,2 %), Zangiota tumani (369,6 mlrd. so'm yoki 8,5 %)ga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 25,7 % tashkil etdi yoki 2059,2 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2023- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 122,0 %ni tashkil etdi.

2023- yil  
yanvar-iyun

**1584,2**  
mlrd. so'm


2024- yil  
yanvar-iyun

**2059,2**  
mlrd. so'm

**24,3%**

**25,7%**

### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **198,2** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **7809,4** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,5 %** va **97,5 %**ni tashkil etdi.



Davlat mulki



Nodavlat mulk



**Ma'lumot uchun:** *Qurilish biror inshootni tayyorlash jarayoni, shuningdek shunday jarayon ketayotgan joydir. Qurilish murakkab jarayon bo'lib, unda bir necha vazifalar amalga oshiriladi. Qurilish — moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri; turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuri-tish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma'noda yaratuvchilik jarayoni. Tugallangan va foydalanishga topshirish uchun tayyorlangan ishlab chiqarish korxonalari, turar joylar, jamoat binolari, inshootlari va boshqa obyektlar Qurilish mahsu-lotlari hisoblanadi.*

*Qurilish O'zbekiston Respublikasidagi moddiy ishlab chiqarishning eng muhim tarmoqlaridan birini tashkil etadi. Respublika iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot tarkibida salmog'iga ko'ra Qurilish sanoat va qishloq xo'jaligidan keyin 3-o'rinda turadi.*

Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 202-86-70